

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

K.Kodirov	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish	118
B.Jumayev	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
U.Usarov	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
SH.Tosheva	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
A.Sabirdinov	
Tuganmas ilhom manbai	138
Q.Yo'ldiyev	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar	142
G.Mashrapova	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar	148
SH.Jumanova	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi	151
E.Shevchenko	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha	155
G.Nazarova	
Ingiliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
D.Xusenova	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари	169
N.Achilova	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
Sh.Sultonova, O.Usmonov	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida	178
Z.Akbarova, G.Sodiqova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari	182
I.Saydamatov	
Ingiliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
Sh.Amonturdieva	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar	191
M.Batirxanova	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi	195
N.Djalilova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetensiyasi	199
A.Zinatullina	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar	203
	MATEMATIKA
A.O'rinov, M.Azizov	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala	207
K.Xalilov	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
T.Xasanov	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK TIZIMLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL SYSTEMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Saydamatov Ikromjon Nazirovich¹¹Saydamatov Ikromjon Nazirovich– O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Ingliz funksional lekasikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi.**Annotatsiya**

Ushbu maqolada frazeologik tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi tadqiqotlar keltirilgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik tizimlarga oid misollar keltirilgan. ingliz va o‘zbek tillarida “quvonch” va “qayg‘u” konsepti ishtirok etgan frazeologik birliklari lingvomadaniy xususiyatlarining mushtarak va farqli jihatlarini ochib berish. Lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tipologik (chog‘ishtirma), madaniyatlararo chog‘ishtirma, konseptual, kontekstual-situativ.

Komponent tahlil asosida ingliz va o‘zbek tillari kesimidagi eng ko‘p qo‘llaniladigan frazeologik birliklardan biri bu – maqol, ingliz tilida esa idiomalar ekanligi asoslangan.

Аннотация

В данной статье представлены исследования особенностей фразеологических систем. Также есть примеры фразеологических систем на английском и узбекском языках. Выявить общие черты и различия лингвокультурологических особенностей фразеологизмов английского и узбекского языков, в состав которых входят понятия «радость» и «печаль». Лингвистическое описание, сравнительно-типологический (сопоставительный), межкультурное сопоставление, концептуальный, контекстуально-ситуативный.

На основе компонентного анализа одним из самых распространенных фразеологизмов в английском и узбекском языках является пословица, а в английском языке - идиома.

Abstract

This article presents researches on the specific features of phraseological systems. There are also examples of phraseological systems in English and Uzbek. To identify common features and differences in linguocultural features of phraseological units in the English and Uzbek languages, which include the concepts of "joy" and "sadness". Linguistic description, comparative-typological (comparative), intercultural comparison, conceptual, contextual-situational.

Based on component analysis, one of the most common phraseological units in English and Uzbek is a proverb, and in English - an idiom.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, frazeologik tizimlar, ingliz tili, o‘zbek tili.

Ключевые слова: фразеологизмы, фразеологические системы, английский язык, узбекский язык.

Key words: phraseological units, phraseological systems, English, Uzbek.

KIRISH. Tilning insoniyat rivojidadagi mo‘jizakorligi shundaki, u bizni o‘tmish bilan bog‘labgina qolmasdan, kishiga bir vaqtning o‘zida kelajakni oldindan ko‘ra bilish, shaxslar bilan muloqot qilish imkonini ham beradi. Shaxmatda har bir donaning o‘z o‘rni va vazifasi bor bo‘lgani bilan, o‘yinning natijasi, donalarni qanday haraktalantirish shaxmatchiga bog‘liq bo‘ladi. Tilda ham har bir unurning o‘z vazifasi, o‘z ma‘no ko‘lami hamda boshqa unsurlar bilan bog‘lanish holatlari mavjud. Izlanuvchilar, yozuvchilar, tilshunoslar esa ana shu til qonuniyatlarini mukammal egallagan holatda, so‘zning yangi-yangi ma‘no ko‘lamlaridan foydalanib, hech kim kutmagan tasvirlar, yangicha so‘z bo‘ronlarini hosil qiladilarki, kishilarga foydasi tegadi, o‘qigan kishi ma‘naviy ozuqa oladi.

Oddiy, faol foydalanishda bo‘lgan, kishilarning qulog‘i o‘rganib qolgan so‘zlarning o‘rniga turlicha maqol, matal, iboralar, hikmatli so‘zlarni qo‘llash orqali ekspressivlikka erishish, tinglovchi e‘tiborini jalb qilishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarida faol foydalanishda bo‘lgan frazeologizmlar miqdori ancha yuqoridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tilda kishi nutqini boyitib, tinglovchi e‘tiborini osongina jalb qiladigan, so‘zga o‘zgacha joziba baxsh etadigan shunday unsurlar ham borki, ularni

TILSHUNOSLIK

frazeologiya deb ataluvchi bo'lim o'zida jamlaydi. Frazeologiya iboralar haqidagi ta'limot bo'lib, bu termini ilk marotaba 1928-yilda Ye.D. Polivanov qo'llagan va bu xususida shunday degan edi: "Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo'lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni "frazeologiya" termini bilan atashni lozim topdim". Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantik jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi". Quyida ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

Ingliz tilida:

1. **(as) soft as a baby's bottom** – paxtedek yumshoq
2. **Break one's word** – so'zidan qaytmoq
3. **Have a heart of stone** – ko'ngli tosh bo'lmoq
4. **Frozen to the bone** – pichoq suyakkacha yetib bormoq

O'zbek tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

1. quvonchi olamga sig'maslik – *have been treading on air*
2. qil ustida turmoq – *thin ice*
3. chumoliday mehnatkash – *to do smth like a bird*
4. ko'ngli parchalanmoq – *break smb's heart*

Tilning lug'at boyligi ham faqat yangi so'zlar yasalishigagina emas, balki iboralar, turg'un so'z birikmalari hisobiga ham son jihatidan, ham sifat jihatidan boyiydi. Tildagi ana shunday turg'un birikmalar "dunyosi" bilan shug'ullanuvchi fan frazeologiya fanidir. Hozirda bu termindan ikki xil ma'noda foydaniimoqda:

1. Tildagi frazeologik birliklarning majmuyi;
2. Turg'un birikmalarni o'rganuvchi soha, fan.

Shuni ta'kidlashimiz joizki, tilshunoslikda turg'un so'z birikmalarni ifodalash uchun turli terminlardan foydalanib kelinmoqda. Mazkur holat ushbu turg'un birikmalar tabiatining murakkabligi bois yuzaga kelmoqda. Bu terminlarning semantik, tuzulish hamda funktsional jihatlari ham anchagina murakkab sanaladi. Shunga ko'ra, frazeologizmlar struktural-semantik, stilistik, murakkab va qo'shma gaplardagi sintaktik funktsiyasi va boshqa tamoyillar asosida o'zaro guruhlanadi deb ayta olamiz. Frazeologizmlarning odatiy klassifikatsiya usullaridan biri sifatida struktural-semantik asosidagi tasnifi tan olinadi. Bunga ko'ra turg'un bog'lamalar juft so'zlar (so'z qo'shilmalari), idiomalar, hikmatli so'zlar (aforizmlar), maqollarga bo'linadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Juft so'zlar (so'z qo'shilmalari)- bir xil so'z turkumiga tegishli va o'xshash birliklardan tashkil topgan frazeologik ma'noli iboralar sanaladi: Juft so'zlar bitta so'z turkumiga tegishli bo'lgan birliklardan tashkil topgan turg'un frazeologik ma'noga ega iboralar hamdir. Xususan,

back and forth - "*ipidan ignasigacha*";

backward(s) and forward(s) – "*ikir-chikirigacha, boshdan oxirigacha*";

does and don'ts - "*qoidasiga ko'ra*";

between grass and hay - "*o'n gulidan bir guli ochilmagan/navqiron*";

open and shut - "*aniq va lo'nda*" kabi turg'un birikmalarni juft so'zlarga misol qilishimiz mumkin.

"Idioma" atamasi grek tilidan olingan bo'lib, "haqiqiy", "asl" degan ma'nolarni ifodalaydi. Idiomalar turg'un bog'lamalar bo'lib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, ma'nosi ularni tashkil qiladigan komponentlarning ma'no yig'indisidan kelib chiqib emas, balki tamomila yangi frazeologik ma'no kasb etuvchi turg'un birikmalardir. Misol uchun,

Taste of your own medicine – *Qaytar dunyo; o'zgaga qazigan choxga o'zi tushmoq*

Actions speak louder than words - *100ta gapdan bitta bajarilgan ish yaxshi; og'zing ishlamasdan qo'ling ishlasin*

Caught between two stools – *Ikki o't orasida qolmoq*

See eye to eye – *Gapi gapiga to'g'ri kelmoq; gapi bir joydan chiqmoq*

Hikmatli so'zlarning asosiy xususiyatlari ularni o'tmish donishmandlari, zamonamizning atoqli arboblari keltirgan aforistik mulohazalar, shiorlar, sitatalar sifatida berilishi bilan ta'riflanadi.

Bu haqida Kaykovus shunday deydi: Agar aqlli bo'lishni istasang, hikmat o'rgangil, aql hikmat bilan kamol topadi.

Quyida ba'zi mashhur hikmatli so'zlarni keltirib o'tamiz:

1. **Don't go around saying the world owes you a living. The world owes you nothing. It was here first.** (Mark Twain) - *Siz dunyo mendan qarzi bor deb yashamaganingiz ma'qul, sababi u shu vaqtgacha hech kimdan hech narsa olmagan.*

2. **Only the insane take themselves seriously.** (Max Beerbohm) - *Faqat aqldan ozganlarga har bir narsani o'zlariga jiddiy qabul qiladilar.*

3. **The heart has its reason that reason knows nothing of.** (Paskal) - *Yurak hech narsani his qilmay qolishiga ham yetarlicha o'z sabablari bo'ladi.*

Maqollar ham frazeologik birliklarning bir turi sanalib, ulardan shakl va mazmun bilan farq qiladi. Odatda ular gap strukturasi kabi shakllanadi hamda hikmatomuz jiloli dunyoqarashni ifodalaydi. Maqollar hamda frazeologizmlarning umumiy xususiyati shundaki, ular struktural turg'un, umumiy ko'chma ma'noga ega, tildagi mustaqil birlik hisoblanadi. Yuqorida sanalgan frazeologik birikmalar odatdagi to'rt guruhi yagona bir printsip asosida, juft so'zlar va maqollar strukturaviy nuqtayi nazaridan biri ikkinchisidan farqlanadi. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda quyidagi maqollarni deyarli har kun ishlatishadi:

Practise makes perfect - *Amaliyot rivojlanishning asosidir*

There is no such thing as a free lunch – *Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur, Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi; Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.*

Good things come to those who wait - *Sabrning tagi sariq oltin.*

Har bir tilning o'z qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari borligini, frazeologiya qator filologik izlanishlarda asosiy hamda tez-tez murojaat qilinadigan sohaga aylanib borayotganligini inobatga olgan holda biz ham ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning nazariy asoslarini atroflicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham turg'un so'z birikmasi, albatta, kamida ikkita so'zdan iborat bo'lishi kerak. Bu jarayonda frazeologik shakl tarkibidagi komponentlar o'z mo'tadilligini saqlagan holda, u yoki bu o'zgarishlarga yuz tutishi mumkin. Quyida ingliz tilida uchraydigan ravish so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlarning frazeologizmlar shakllanishida tutgan o'rnini ko'rib chiqamiz:

He realized that ... he was sailing rather close to the wind financially... (Th. Dreiser).

... he's sailing near the wind with those large contracts that he makes (J. Galsworthy).

He didn't buy a programme - they were asking a shilling each for them and a man must draw a line somewhere (J.B. Priestley).

He was drunk ... rotten drunk. A fellow got to draw the line somewhere (A.J. Cronin).

Misollardan ko'rinib turibdiki, frazeologik birliklar tilda tayyor holda mavjud bo'lgan birlik sanaladi. Ular ikki yoki undan ortiq komponentlarga egadir. Natijada frazeologizmlar o'z ma'nolari va tarkibiga ko'ra bir butun turg'un shakl sifatida qabul qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki,

1. Frazeologik birliklar nutq jarayonida yaratilmaydi, aksincha, ular tilda tayyor holda mavjud bo'ladi.

2. Tarkibiy qismlarining bir butunligi, strukturasi va semantikasining doimiyliigi ingliz frazeologik birliklarga xos bo'lgan xususiyatlar sanaladi.

3. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari ikki yoki undan ortiq asosiy urg'uga ega bo'lishi mumkin.

4. Frazeologik birliklar so'zlovchi tomonidan so'z sifatida anglanishi mumkin bo'lgan alohida bo'laklardan tashkil topgan turg'un bog'lamalardir.

Tilshunos olim L. Boboxonovanning fikriga ko'ra, matalning maqoldan farqi, uni odatda ma'lum shaxsga tegishli bo'lishidadir. Bunda ixchamlik, umumlashtiruvchilik mavjud bo'lib, matnda erkinligini saqlaydi va matndan tashqarida ham o'zining bir butunligini, yaxlitligini aslo yo'qotmaydi.

"A clear conscience makes a man very happy" (I. Murdoch).

"Sweet is revenge, especially to women" (G. Byron).

"A little learning is a dangerous thing" (A. Pope).

"A sound mind in a sound body".

"Better late than never".

TILSHUNOSLIK

“Dunyoda tilsiz halq bo‘lmaganidek, maqolsiz til ham yo‘q”, - degan edi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat.

O‘zbek tilida ham frazeologiya tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanib, olimlarning aniqlashicha, jamiyatdagi har bir kishi tilimizda mavjud bo‘lgan 800 ga yaqin aforizmlar, maqol yoki matal haqida tushunchaga egadir. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlarning turli jihatlari tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilgan (Sh. Rahmatullaev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov va b.), Frazeologizmlar borasida bir necha lug‘atlar tuzilgan (Sh.Rahmatullaev, M.Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to‘plamlar chiqaruvchi markaz o‘z faoliyatini yuritgan.

O‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan barqaror birliklardan biri bu – maqol sanaladi. Maqol orqali kishilar qisqa shaklda keng mazmunni ochib beradilar. Bunday qisqalikka esa gapning ayrim bo‘laklarini ishlatmaslik natijasida erishiladi. Masalan,

“Oldin o‘yla, keyin so‘yla”. – *“First think, then speak”*

“Hechdan ko‘ra kech yaxshi”. - *“Better late than never”*.

“Birovning holiga kulmagin zinhor, sening holingga ham kulguvchilar bor”. - *“He laughs best, who laughs last”*.

“Yurganga yo‘l yaxshi”. - *“Great ship asks deep waters”*.

O‘zbek tilidagi maqol va matallarning muhim tomoni — ularning semantikasi, ya’ni bunda ikki ma’noning asl ma’no hamda ko‘chma ma’nolarning to‘qnashuvi, chatishuvini kuzatish mumkin: Xususan,

“Puch yong‘oq bilan qo‘yninini to‘ldirmoq”,

“Ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq”.

O‘zbek tilida maqollarning tuzilishida alliteratsiyaning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin: *“Tomdan tarasha tushganday”*.

Maqol va matallarda stilistik usullardan takror va parallelizmning ham ta’sir kuchi kattaligi har ikki tilda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘zbek tilida

“Yaxshi so‘z - jon ozig‘i, yomon so‘z - bosh qozig‘i”.

“Qor yog‘di - don yog‘di” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Ushbu holat ingliz tilida shunday aks ettiriladi:

“Eat at pleasure, drink with measure”. “No gains, no pains”.

“A good beginning makes a good ending”.

Yuqoridagi maqollarda sintaktik-stilistik vositalardan biri bo‘lgan antiteza ya’ni tazod qo‘llanilgan.

O‘zbek tilida maqollar kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida bo‘lib, tugal fikr ifodalaydi, o‘z grammatik qurulishi jihatidan ham doim gap kabi strukturaga ega bo‘ladi. Maqollardan anglashiladigan mazmun chuqur ma’noga ega bo‘lib, tasviriy yo‘l bilan ochilishi mumkin. Masalan:

“Daraxt bir joyda ko‘karadi. “hayot kechirayotgan joyning shart sharoitiga ko‘nik, agar shart sharoitlarni yoqtirmay, issiq o‘rningni sovutib, tashlab ketsang, baribir qadr-qimmat topa olmaysan. O‘z yeringga, o‘z vatan deb bilgan joyinga qanoat qilsang, bora-bora kamolot hosil qilasan, shu holingcha qolib ketmaysan, biring ikki, yomonning yaxshi bo‘ladi, topganing zar-u oltin bo‘ladi”.

Mazkur tasvir o‘zbek tilidagi yana bir ko‘p foydalanishda bo‘lgan maqolga teng keladi, ya’ni *“O‘zga yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l”*. Bu holat frazeologik birliklarning sinonimiyasiga ham misol bo‘la oladi.

Tilda matallarga ham alohida e’tibor mavjud bo‘lib, halq orasida ham matallardan ancha keng foydalaniladi. O‘zbek tilida maqollarni matallardan farqini ko‘rsatib, alohida ta’riflab bergan T.Solmatov shunday deydi, - *“Matal – narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi ibora va nutq oborotlaridir”*. Matal aytmoqchi bo‘lgan fikrni biror vosita orqali ifodalaydigan, ko‘chma ma’noli soddajumla bo‘lib, unda xulosa bo‘lmaydi, balki uning o‘zi xulosa chiqarishda asos bo‘lib xizmat qiladi. *“Matal fikrni tugal bayon qilmaydi, balki unga ishora qiladi”*. Misol uchun, *“Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog”*; *“Qimirlagan qir oshar”*.

O'zbek tilidagi ayrim ilmiy tadqiqotlarda frazeologik birliklarning imkoniyatlarini ochishga harakat qilinadi, frazeologiya nazariyasining boshqa bir qancha masala va muammolari ham o'rta qo'yiladi va ushbu masalalar qisman bo'lsa-da hal etiladi. Jumladan, Shomaqsudov o'z ishida Muqumiy asarlari asosida o'zbek adabiy tili frazeologik fondining boyish manbalarini ochishga intiladi. Keyingi yillarda o'zbek frazeologiyasini o'rganish jarayoni asosan ikki yo'nalishda borayotganini ko'rishimiz mumkin:

- 1) o'zbek tili frazeologik birliklarining struktural tiplari (masalan, fe'lli frazeologik birliklar, ravishli frazeologik birliklar, gapga teng bo'lgan frazeologik birliklar kabi) o'rganila boshlandi;
- 2) o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik tiplari.

XULOSA. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini o'rganish, undagi ifoda-tasvir vositalarining tadqiqiga alohida e'tibor qaratilayotgani bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur ko'rinishdagi ishlarda o'zbek frazeologiyasining ko'pgina o'ziga xos muammolari o'rganilmoqda hamda o'zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi qator frazeologik birliklar tahlili hisobiga ham boyib bormoqda. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek tilida frazeologik birliklarga tilning mustaqil birligi sifatida qaraladi, bunga ulardagi ba'zi xususiyatlar — nutqda mavjudlik, strukturali va komponent tarkibining turg'unligi kabi jihatlari hisobga olinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdramanova S. Ingliz tilini o'rta darajada o'rganayotgan turk tilidagi ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan tana qismi komponentlari bilan ingliz idiomalarini qayta ishlash. Falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Istanbul, 2012. 142 b. (Abdramanova S. Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency. Thesis for the Doctor of Philosophy Degree. Istanbul, 2012. 142 p.)
2. Charlz Dikkens. Oliver Tvistning sarguzashtlari. – London: Pan, 1991.-551b. (Charles Dickens. The Adventures of Oliver Twist. – London: Pan, 1991.-551p.)
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –Л.: Просвещение, 1981. – 395с. (Arnold I.V. Stylistics of modern English. - L.: Education, 1981. - 395 p.)
4. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1961. 391с. (Bally Sh. French style. - M.: Publishing house of foreign literature, 1961. 391p.)
5. Бердиёров Х.Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиялогик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 232с. (Berdiyrov Kh, Rasulov R. Uzbek tiling paremiological lugati. - Tashkent: O'qituvchi, 1984. – 232p.)
6. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номзоди. ... дис. – Самарқанд, 2001. – 135с. (Borzorboev K.T. Idioms of oral speech in Uzbek: cand.science.philol. ... dis. - Samarkand, 2001. – 135p.)
7. Боркачев С.Г. Лингвокултурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании// Филологические науки 2001. №1 (Borkachev S.G. Linguoculturology, linguistic personality, concept: the formation of an anthropocentric paradigm in linguistics // Philological sciences 2001. No. 1)
8. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – 267 с. (Buranov J. Comparative typology of English and Turkic languages. - M.: Higher school, 1983. - 267 p.)
9. Карасик В.И. «Языковой круг: личность, концепты, дискурс». Волгоград, 2002. (V.I.Karasik "Linguistic circle: personality, concepts, discourse". Volgograd, 2002.)
10. Городецкая И.Б. Фразеологизмы-соматизмы в русском и французском языках. Автореферат дисс. ... кан. фил. наук. Пятигорск, 2007. 23 с. (Gorodetskaya I.B. Phraseologisms-somatisms in Russian and French. Abstract of diss. ... can. Phil. Sciences. Pyatigorsk, 2007. 23 p.)

(Taqrizchi: N.Hoshimova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))